

Rasmiy Telegram-bot orqali amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha UZDIGITAL TV (keyingi o'rinlarda – RTV) abonentlariga 10 foizlik keshbek taqdim etish tartibi

- 1 – Ushbu Shartlar "Keshbek 10%" aksiyasining o'tkazilish tartibini, ishtirok etish mexanizmini va keshbek taqdim etish qoidalarini belgilaydi. Aksiya "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" MChJ (keyingi o'rinlarda Jamiyat) tomonidan amalga oshiriladi.
- 2 – Aksiya muddati: 2025-yil 10-dekabrdan 2026-yil 31-dekabrgacha. Jamiyat zarur deb topsa, aksiya muddati bir tomonlama tartibda uzaytirilishi mumkin
- 3 – Aksiyada faqat Jamiyatning jismoniy shaxs-abonentlari ishtirok etishi mumkin.
- 4 – Aksiyada ishtirok etish uchun abonent Jamiyatning rasmiy Telegram-boti orqali RTV xizmatlari uchun to'lov amalga oshirgan bo'lishi shart.
- 5 – Keshbek miqdori rasmiy Telegram-bot orqali amalga oshirilgan to'lov summasining 10 foizi etib belgilanadi.
- 6 – Keshbek faqat Jamiyatning rasmiy Telegram-boti orqali qilingan to'lovlar bo'yicha taqdim etiladi.
- 7 – Keshbek to'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan so'ng Jamiyatning AHKT tizimidagi abonent shaxsiy hisobiga avtomatik tarzda yoziladi.
- 8 – Keshbek pul ekvivalentiga ega emas, naqdlashtirilmaydi, qaytarilmaydi va uchinchi shaxslarga o'tkazilmaydi.
- 9 – Keshbek faqat "Uzdigital TV" xizmatlari uchun to'lovda foydalaniladi.
- 10 – To'lov bekor qilingan yoki qaytarilgan taqdirda, shuningdek abonent bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinganda, ushbu to'lov bo'yicha hisoblangan keshbek to'liq bekor qilinadi.
- 11 – Keshbek Telegram-bot orqali amalga oshirilgan haqiqiy to'lov summasi asosida hisoblanadi.
- 12 – Hisoblash formulasi: $\text{Keshbek} = \text{To'lov summasi} \times 10\%$
- 13 – Keshbek har bir to'lov bo'yicha alohida hisoblanadi va abonent shaxsiy hisobida jamlanadi.
- 14 – AHKT tizimida keshbek "raqamli bonus" sifatida aks ettiriladi va abonentning shaxsiy kabinetida ko'rinadi.
- 15 – Abonent mavjud keshbek qoldig'ini RTV xizmatlari uchun to'lovlarni to'liq yoki qisman qoplashga yo'naltirishi mumkin.
- 16 – Keshbek qo'llanilishi avtomatik tarzda amalga oshiriladi; alohida ariza talab qilinmaydi.
- 17 – Keshbek faqat "Uzdigital TV" xizmatlari uchun foydalaniladi va boshqa xizmatlariga yoki boshqa abonentning shaxsiy hisobiga o'tkazilmaydi.
- 18 – Abonentlarga aksiya shartlari quyidagi axborot kanallari orqali yetkaziladi: rasmiy Telegram-bot; Jamiyatning rasmiy veb-sayti; rasmiy ijtimoiy tarmoqlar; RTV xorijiy telekanallaridagi efir; RTV xorijiy telekanallaridagi efirda chopar satr; Jamiyatning abonentlarga xizmat ko'rsatish bo'limlari.
- 19 – Yuridik shaxslar aksiyada ishtirok eta olmaydi.
- 20 – Quyidagi holatlarda keshbek taqdim etilmaydi: to'lov Telegram-bot orqali amalga oshirilmagan bo'lsa; to'lov bekor qilingan yoki qaytarilgan bo'lsa; abonent ma'lumotlari noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa; texnik nosozliklar sababli to'lov amalga oshmagan bo'lsa.
- 21 – Nizoli holatlar Jamiyatning ichki tartib-qoidolari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.
- 22 – Abonent Call-center 1065 yoki Jamiyatning rasmiy aloqa kanallari orqali murojaat qilishi mumkin.
- 23 – Jamiyat aksiyani o'zgartirish, muddatini uzaytirish yoki uni muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega.
- 24 – Aksiya shartlariga kiritilgan har qanday o'zgartirish Jamiyatning rasmiy axborot kanallari orqali e'lon qilinadi.
- 25 – Ushbu Shartlar Jamiyatning aksiyani o'tkazish bo'yicha Buyruqning ajralmas qismi hisoblanadi.